

Xorazm viloyati yer resurslaridan foydalanishning ahvoli va ularni muhofaza qilish

Babajonova Sanobar Yuldashboyevna

Urganch Davlat Universiteti

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedra mudiri, dotsent

Durdiyeva Latofat Baxtiyor qizi

Urganch Davlat Universiteti, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati yer resurslarining unumdorligi unda tarqalgan tuproqlarning turlari hamda ularning qishloq xo‘jaligidagi foydalanilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: allyuvial tuproq, sho‘rlangan tuproqlar, qumli tuproq, sug‘oriladigan yer, subtropik.

Xorazm viloyatining yer maydoni O‘zbekiston respublikasi viloyatlari ichida kattaligi jihatidan oxirgi o‘rinlardan birini egallaydi. Xozirgi kunda viloyat yer resurslari 611.5 ming gektarga teng bo‘lib shundan qishloq xo‘jaligida yaroqli yerlar 402 ming gektarni tashkil qiladi. Ular 1995-yil ma‘lumotiga ko‘ra quyidagicha taqsimlangan: ya‘ni haydaladigan yerlar 214.6 ming gektar, pichanzorlar 42 ming gektar, yaylov va o‘tloqlar 164.8 ming gektarni tashkil qiladi.

Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi ekinlarini asosini paxtachilik va g‘allachilik tashkil etadi. Bundan tashqari hozirgi kunda polizchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda shirkat, ijapa va xususiy fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorazm viloyatining jami ekin maydoni 232,1 ming gektar bo‘lib, shundan 129,4 ming gektar yer qishloq xo‘jaligi shirkatlari, 69 ming gektar yer xususiy fermerlar, 33,7 ming gektar yer maydoni dehqon xo‘jaliklariga tegishlidir. Xorazm viloyati umumiy yer fondining 38,4 % haydaladigan yerlar, 18,2 % yaylov va o‘tloqlarni, 1,3% bog‘ va tokzorlarni, 0,9 % i tutzorlar va 9,6 % o‘rmon va changalzorlarni tashkil etadi.

Viloyatimizda 1991-2021-yillarda kanal va ariqlar rekonstruksiya qilinib, suv yo‘llarining umumiy uzunligi ko‘paygan. Xorazm viloyatidagi sho‘r suvlar viloyat



tashqarisiga asosan zaxkashlar orqali chiqarib tashlanadi. Viloyatda irrigatsiya va melioratsiya ishlariga xam alohida e'tibor berib kelinmoqda.

2003 -yil ma'lumotlariga ko'ra Xorazm viloyatining jami ekin maydonining 102,3 ming gektariga paxta, 86 ming gektariga don, 3 ming gektariga kartoshka, 9 ming gektariga sabzavot ekilmoqda. Keyingi paytlarda viloyatimizning don (asosan, bug'doy, sholi) yetishtiriladigan maydonlari kengaytirildi. Xorazm viloyati respublikamizda sholi yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Viloyatimizda 276,7 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari mavjud. Xorazm viloyatiga har yili qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun sarflanayotgan suvning katta qismi yerosti suvlarining yer yuzasiga yaqinligi sababli sizot suvlarga aralashib yoki sizot suviga aylangan holda isrof bo'ladi. Xozirgi kunda jami sug'orish uchun sarflanayotgan suvning o'rtacha 4 mlrd/m³ ning 1,5 mlrd/m³ qismi ya'ni 30 foizi drenaj tizimi orqali Turkmaniston hududiga chiqib ketmoqda (asosan Sariqamish ko'liga). Bu degani qo'shimcha yana 100 ming gektardan ortiq yerni bir yil davomida sug'orish mumkin bo'lgan suv miqdori demakdir.

Xorazm viloyati asosan issiq subtropik cho'l mintaqa hududiga joylashgan. Viloyat tuproqlari asosan to'rt tipga mansub bo'lib, asosiy qismini o'tloqi-allyuvial tuproqlar ya'ni 74,9 % ni tashkil etadi. Shundan sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan maydonlar 71,0 % ni, o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar esa 29,0 % ni tashkil etadi. Xorazm viloyati tuproqlarini sho'rlanishi asosan xlorid-sulfat tuzlari ishtirokida sodir bo'ladi. Xorazm viloyatining yer osti suvlari turli chuqurliklarda joylashgan bo'lib, daryo sohili yaqinidagi maydonlarda ular 0,5 metrdan 1,5 metrgacha, daryodan uzoqroqda joylashgan maydonlarda esa 2,0-2,5 metrni tashkil etadi.

Xorazm viloyatining salkam ikki metr chuqurlikkacha bo'lgan tuproqlarining agrofizik tarkibi quyidagicha:

0-47 sm (0-28 sm haydov qatlami, 28-31 sm plug osti qatlami biroz zich, qo'ng'ir-mallarang, o'rtacha qumoq, kesmasida mayda teshikchalar bor bo'lib, keyingi qatlamga o'tishda mexanik tarkibi bilan keskin farq qiladi.



47-60 sm, mallarang, yengil qumoq, mayda qumli, namligi kam, jinsligi kam, o'simlik ildizlari oz miqdorda (47-50 sm yumshoq, oqimtir rangli), keyingi qatlamga o'tishda mexanik tarkibi bo'yicha farq qiladi.

60-84 sm, qo'ng'ir-sarg'ish, o'rtacha qumoq, og'irga yaqin, namligi avvalgi qatlamlardagidan ko'proq, yo'g'onligi 1-2 mm. lik ildizlar bor, jips joylashgan. 84-108 sm, mallarang, mayda qum, kam namli, yumshoq, juda siyrak ildizlar va chirigan ildizlar bor.

108-142 sm, qo'ng'ir, yengil qumoq, kam namli (139-142 sm qizg'ish, og'ir-jips tuproq), 1 mm diametrli siyrak ildizlar bor.

142-180 sm, (150-152 sm, qizg'ish, og'ir jips), qo'ng'ir, yumshoq, kuchli namli mayda qum.

Xorazm viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy tarkibi ham o'ziga xosdir. Mexanik tarkibi yengil qumoq bo'lgan ushbu tuproqlarda chirindi miqdori oz bo'lib 0,5-0,8 % gacha, og'ir qumoq tuproqlarda esa biroz ko'proq 0,7-1,4% ni tashkil etadi. Tuproq tarkibidagi azot juda kam bo'lib, 0,3-0,4 % ni tashkil etadi xolos. Haraktchan fosfor miqdori 6,0 mg/kg dan 32,0 mg/kg gacha, kaliy esa 130 mg/kg dan 190 mg/kg ni tashkil etadi. Xorazm viloyatida barcha profillar bo'yicha tuproq yuqori karbonatligi bilan ajralib turadi.

Xorazm viloyatining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan aksariyat tumanlarida madaniy tuproqlar ham vujudga kelgan. Bunday tuproqlar viloyatning barcha tumanlarida asosan Bag'ot tumanida ko'proq uchraydi. Qumlar bilan chegaradosh tumanlarda shamol ta'sirida kuchli o'zgargan qum-tuproqlar uchraydi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi viloyat hududida allyuvial qumoq tuproqlar keng tarqalgan. Xorazm viloyatining barcha tumanlarida sho'rxok tuproqlar ham mavjud bo'lib, viloyatimiz hududida anchagina yerlarda tarqalgan.

Yuqorida tarif berilgan barcha tuproqlarda dehqonchilik u yoki bu darajada amalga oshiriladi. Dehqonchilik uzluksiz qilinib kelayotgan barcha tuproqlarni bir nom bilan madaniy tuproqlar deb ataladi. Har bir tuproq turini o'zlashtirish - madaniylashtirish darajasi viloyatimiz tumanlarida bir xil emasligini ko'rishimiz mumkin. Xorazm viloyati tuproqlarning unumdorligi Xazorasp, Bog'ot, Xonqa,



Urganch, Xiva, Shovot tumanlarida bir muncha yuqori bo`lib, qishloq xo`jaligi ekinlarini hosildorligi bo`yicha ko`rsatkichlar xam sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turishini ko`rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xorazm viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali ushbu hududda nafaqat ichki bozor uchun balki tashqi bozor uchun ham xavfsiz, ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlarini va yengil sanoat uchun xomashyo mahsulotlarni yetishtirish imkoniyatlarimiz mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abirqulov K.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. T. 2004 y
2. Rafiqov A.A., Abirqulov K.N., Hojimatov A., Ekologiya. T. 2004.
3. Avezboyev S.A., Volkov S.N. Yer tuzilishining ilmiy asoslari. T. 2015.
4. Babajanov A.R., Roziboyev S.B., Abdurahmanova I.Q. Yerdan foydalanish asoslari. T. 2006.

Research Science and
Innovation House

